

ZUBTURUM O'SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

Bozorova Nigina Sobirjonovna

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasini
mudiri*

Anorboyeva Shaxzoda Sadridin qizi

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasini
assistenti*

Sobirova Mohiniso Shokirjon qizi

farmatsiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola zubturum o'simligining xalq tabobatidagi ahamiyati hamda zararli xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.*

Katta zubturum (Plantago Major) – zubturumdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik, kalta va yo'g'on ildizpoyali o't o'simlik. 260 tacha turi ma'lum. O'zbekistonda 6 ta turi uchraydi 4 turidan dorivor o'simlik sifatida foydalaniladi. Barglari ildiz bo'g'zida to'p bo'lib joylashgan, bandli, keng tuxumsimon yoki ellipsimon, nashtarsimon yoki tasmaimon. Gullari poya va shoxlar uchida oddiy boshhoq hosil qiladi. Mevasi ikki yoki ko'p urug'li. Bargi va urug'i tarkibida S va K vitamin, karotin, shilimshiq oshlovchi va boshqa moddalar bor. Bargidan tayyorlangan damlama me'da-ichak kasalliklarini, yaralarni davolashda, urug'ining shilimshiq eritmasi esa kuchsiz surgi sifatida ishlatiladi.

Kalit so'zlar: *Zubturum, tibbiyot, vitaminlar.*

THE VALUE OF PLANTAIN IN FOLK MEDICINE.

Annotation: *This article provides information about the significance and harmful properties of the Plantain in folk medicine.*

The plant (Plantago Major) is a perennial herbaceous plant with a short and thick rhizome belonging to the plant family. 260 types of wheelbarrows are known. There are 6 species in Uzbekistan, 4 of which are used as medicinal plants. The leaves are located in the form of a ball at the root throat, belt, broadly ovate or elliptical, lanceolate or ribbon-shaped. Flowers form simple spikes at the ends of stems and branches.

Key words: *Plantain, medicine, vitamins.*

Bargizub preparatlari balg'am ko'chirish, bog'riq qoldirish, bakteritsit va yallig'lanishlarni tuzatish xususiyatiga ega. Bargizub barglaridan tayyorlangan damlama va qaynatma bronxit, bronxial astma, ko'kyo'tal va silni davolashda qo'llaniladi. Sarxil barglarining suvi oshqozon kislotaligi pastligi bilan kechuvchi

surunkali gastritda, shuningdek, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasida foyda qiladi. Bunday suv oshqozon shirasi ajralishini yaxshilaydi, qonda gemoglobinni ko'paytirib, xolesterinni kamaytiradi. Bundan tashqari, bargizub preparatlari xoletsistit, buyrak yallig'lanishi, sariq kasalligi, dermatitni davolashda, bachadon, bavosil, oshqozondan qon oqishini to'xtatishda ishlatiladi. Bargi yaralarga qo'yilsa, tuzalishiga yordam beradi. Bargizubdan balg'am ko'chiruvchi vosita quyidagicha tayyorlanadi: 1 oshqoshiq o'simlikni 1 stakan qaynagan suvga solib, 15 daqiqa damlanadi. Keyin suzib, kuniga 2-3 mahal 2 oshqoshiqdan ichiladi. Oshqozon-ichak kasalliklarida 25 g bargizub bargini 1 stakan qaynagan suvga solib, 1 soat damlanadi. Suzib, 3-4 mahal 1 oshqoshiqdan ichiladi. Oshqozon kislotaligi pastligi bilan kechuvchi gastritda bargizub urug'idan qaynatma tayyorlanadi: 2 oshqoshiq urug'ni 1 stakan qaynagan suvga solib, past olovda 10 daqiqa qaynatiladi. Suzib, kuniga 1 marta 1 oshqoshiq ichiladi.

Xulosa: Hozirgi kunda tabiatimizda o'sayotgan dorivor o'simliklardan oqilona foydalanib, ulardan kasalliklarga davo topishimiz mumkin. Zubtutum dorivor o'simligi juda ko'p kasalliklarga davo bo'lib uni tabobatimizda keng qo'llasak bo'ladi. Bu o'simlikning bargi, tomiri va urug'lari ko'plab kasalliklarga davo. U tabiatimizda o'sadi va noyob hisoblanadi. Zubtutumni bari qon to'xtatuvchi xususiyatga ham ega. Bundan tashqari bargizub preparatlari xoletsistit, buyrak yallig'lanishi sariq kasalligi, dermatitni davolashda, bachadon, bavosil, oshqozondan qon oqishini to'xtatishda ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Xolmatov Dorivor o'simliklar Toshkent 2021 yil
2. Maznev N. V Dorivor o'simliklar ensiklopediyasi 2014. yil
3. Shifobaxsh giyohlar Nabiyev M. 2020-yil